



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA BADIY ADABIYOTLAR ORQALI
BOLALARNING IJODIY KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI**

Soatqulov Suyar Quvatovich

Jizzax viloyati Forish tumani

74-maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi



Annotatsiya. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish ta'lim jarayonidagi dolzarb masala sanaladi. O'quvchilarni kutilmagan pedagogik vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni qo'llay olishga kasbiy va kundalik masalalarni hal qilishga tayyorlash ta'lim jaranidagi asosiy vazifalardan biridir. Ushbu tezisda badiiy adabiyotlar orqali topshiriqlar berish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Badiiy adabiyot, ijodiy qobiliyat, metod, dars, o'qitish.

KIRISH

“Ijodkorlik” va “Ijodiy qobiliyat” tushunchalari o'rtasidagi munosabat, shuningdek talabalarning ijodiyqobiliyatlarini rivojlantirish borasida qator olimlar izlanish olib borgan. Qadimgi yunon olimlari Platon, Aristotel, Avgustin ijodiylik tushunchasini tadqiq etgan. Shuningdek, J.Bruno, B.Spinoza, I. Kant, S. Rubinshteyn, G. Uolles va boshqalarning asarlarida ham o'z aksini topgan.

D. B. Elkoninning ta'kidlashicha, ijod o'zaro bog'liq qobiliyatlarning bir butun tizimi elementlarni: tasavvur, assotsiativlik, fantaziya, xayolparastlikni o'zida mujassamlashtirgan



qobiliyatdir. Shaxsiy faoliyatning eng yuqori shakli sifatida ijod uzoq tayyorgarlik, donolik, ijtimoiy intellektning yuqori darajada bo'lishini taqozo qiladi.

ASOSIY QISM

Shveysariyalik psixolog J.Piaje intellektning quyidagi rivojlanish bosqichlariga ajratadi:

1. Sensomotor intellekti (tug'ilishdan to 2 yoshgacha).
2. Operatsiyalardan ilgari tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha).
3. Konkret (yakqol) operatsiyalar (aqliy harakatlar) davri (7-8 yoshdan 11- 12 yoshgacha).
4. Formal (rasmiy) operatsiyalar (aqliy harakatlarni amalga oshirish) davri [4].

E.P.Torrance ijodiylik mezonlarini aniqlagan, uning fikricha "birinchi mezon-nostandartlik ijodiy qobiliyat va originallik bilan o'xshash bo'lib, o'ziga xoslikka nisbatan kengroq tushunchadir. Ikkinchi mezon - anglanganlikdir.

Badiiy adabiyot inson ruhiyatiga ta'sir etish omilidir. Badiiy adabiyot mashg'ulotlarida ko'zda tutiladigan asosiy maqsad - kichkintoylar qalbida badiiy kitobga nisbatan havas uyg'otish bilan birga, ularning kitobxonlik savodini, kitobxonlik madaniyatini oshirish ham ko'zda tutiladi.

Buning uchun bolalarning yoshxususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagilarga [2]:

- badiiy asarlarda aks ettirilayotgan ahamiyatga molik g'oyalarni teranroq tushunish;
- qahramonlar xulq-atvorini tahlil etib, yaxshi va yomon jihatlari farqlab, mustaqil baho berish;
- mantiqli fikrlash: fikrlarini erkin, ravon bayon etish ko'nikma va malakalarini paydo qilish, shakllantirish va rivojlantirib borishga alohida ahamiyat beriladi.

Albatta, bu maqsadni amalga oshirish-ancha murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir.

Ustozlar badiiy adabiyot mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda va badiiy asar tahlilida quyidagi vazifalarni hal etishlari talabetiladi: badiiy asar mag'ziga singdirilgan asosiy maqsadni aniqlash; asar qaysi jihatlari bilan bolani fikrlashga undamoqda; asar qahramonlarining o'zarosuhbati; qahramonlar o'rtasidagi to'qnashuvlarning sabab va



oqibatlariga alohida e'tibor qaratish; badiiy tasvir vositalarini (qahramonlarning qiyofasi, tabiat tasviri; jonlantirish; o'xshatish) aniqlash; asar janri (ertak, hikoya, she'r) bo'yicha farqlarga bolalar e'tiborini qaratish, tushunchalarini mustahkamlash; badiiy asar voqealari asosida mantiqli savollar tuzish; badiiy asar bo'yicha suhbat- munozara tashkil etish; asar g'oyasini ochishdaxizmat qiluvchi maqol, hikmatli so'z vatopishmoqlardan foydalanish; bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirish usullarini izlash (badiiy asar voqeasi yoki qahramonlar sarguzashtini davom ettirish, mustaqil ertak, hikoya yoki she'r, topishmoq va tez aytishlar to'qish v.b.); asar bo'yicha ijodiy fikrlashni davom ettirish (bolalar ishtirokida ertak va hikoyalarni sahnalashtirish; qo'g'irchoq teatri qo'yish; teatrga sayohat uyushtirish; mehnat, tasviriy faoliyat, musiqa mashg'ulotlarida mavzuni mustahkamlash va boshqalar); kitob javonigayangi kitob va rasmlardan ko'rgazmalar tashkil etish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish orqali insoniyat aql-idrokining nodir namunalarida ifodalangan bilimlar va hayotiy tajribalarni o'rganishlariga kengroq sharoit yaratiladi. O'quvchilarda badiiy adabiyotga nisbatan qiziqish uyg'otishdagi kitobxonlik asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Bilishga oid qiziqishlar o'quv jarayonining dinamik rivojlanishini ta'minlashga ko'maklashadi. U o'quvchilarning faol tarzda o'quv-biluv faoliyatini o'zlashtirishlariga yordam beradi. Bilishga oid qiziqishlar o'quvchilarda tashabbuskorlikni tarkib toptiradi. Bu jarayonda o'quvchining o'zi yangi bilimlarni o'zlashtirish usullarini izlab topadi. Natijada ta'lim, tarbiya va rivojlanishning samaradorligi ortadi. Faol bo'lmagan va xech narsaga qiziqmaydigan o'quvchilarga o'qituvchilar kuchli ta'sir o'tkazib, ularning bilishga oid qiziqishlarini muayyan maqsadga yo'naltirishlari kerak.

O'quvchilarning bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish sohasida quyidagi darajalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- sinchkovlik qiziquvchanlik
- shaxsiy bilishga asoslangan qiziqish ijodiy qiziqish.

Ular o'quvchilarning u yoki bu o'quv predmetiga nisbatan turli-tuman qiziqishlarini ifodalaydi. Xali o'rganilmagan bilimlarni o'rganishga intilish, yangi axborotlarni o'zlashtirish kabilar shular jumlasidandir.



Ijodiy qiziqishlarning namoyon bo'lish bosqichi quyidagilarni o'z ichiga oladi: mustaqillik, o'quvchining qayta shakllangan faoliyati, o'zoldilarida turgan muammolarning yangicha yechimlarini ta'minlovchi usullarni qo'llash, o'z ijodiy layoqatlarini namoyon qilish kabilar.

XULOSA VA MUNOZARA

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda kitobxonlik vositasida badiiy adabiyotga qiziqishni shakllantirishdan iborat. Bu muhim masalalardan biri bo'lib, kitoblar va kitobxonlik o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish va ularni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. F.Umarova va boshqalar. Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim.2-modul. T.: 2011 4.
2. L.Mirjalolova. Bolalarni gapirtirib o'ynaladigan o'yinlarga nutqiy jihatdan tayyorlash. T.: 2015
3. M.Asqarova, G'.Qodirova —Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish T.:—O'qituvchi2011 y
4. Genis Aleksandr. Qalb fotografiyasi// Jahon adiblari adabiyot haqida- T: Ma'naviyat 2010.
5. Safarova R.G. va b. O'quvchi-yoshlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik- psixologik mexanizmlari.// Monografiya. – T.: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2018 yil, 192 bet.